

3–4 YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOY ME'YOR VA QOIDALARGA AMAL QILISHNI O'RGATISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yuldasheva E'zoza Muxammad qizi

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17758307>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda 3–4 yoshdagi bolalarda ijtimoiy me'yor va qoidalarga amal qilishni o'rgatishning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy xulq-atvori, emotsional rivojlanishi, o'yin faoliyati va kattalar bilan muloqoti asosida ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish mexanizmlari o'rganilgan.

Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, bu yoshda bola ijtimoiy qoidalarga mantiqan emas, balki hissiy tajriba orqali amal qiladi. Shuning uchun ijtimoiy me'yorlarni o'rgatishda o'yin faoliyati, kattalarning shaxsiy namunasi, ijobiy emotsional muhit, rag'bat va doimiy muloqot muhim o'rin tutadi. Ishda 3–4 yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari, ularning axloqiy ongini shakllantirishda tarbiyachi va ota-onaning o'zaro hamkorligi ahamiyati yoritilgan.

Natijalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy-axloqiy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bola, ijtimoiy me'yor, qoidalar, axloqiy tarbiya, psixologik xususiyatlar, hissiy tajriba, o'yin faoliyati, tarbiyachi, ijtimoiy ong, empatiya, ijtimoiylashuv, rag'bat, muloqot madaniyati.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ 3–4 ЛЕТ СОБЛЮДЕНИЮ СОЦИАЛЬНЫХ НОРМ И ПРАВИЛ

Аннотация. В данном научном исследовании проанализированы психологические особенности обучения детей 3–4 лет соблюдению социальных норм и правил. В ходе исследования изучены механизмы усвоения социальных норм дошкольниками на основе их социального поведения, эмоционального развития, игровой деятельности и общения со взрослыми. Результаты наблюдений показали, что в этом возрасте ребёнок следует социальным правилам не логически, а через эмоциональный опыт. Поэтому в обучении социальным нормам важную роль играют игровая деятельность, личный пример взрослых, положительная эмоциональная атмосфера, поощрение и постоянное общение.

В работе также раскрыты психологические особенности детей 3–4 лет и значение взаимодействия воспитателя и родителей в формировании их морального сознания. Полученные результаты дополнены практическими рекомендациями по эффективной организации процесса социально-нравственного воспитания в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: дошкольник, социальная норма, правила, нравственное воспитание, психологические особенности, эмоциональный опыт, игровая деятельность, воспитатель, социальное сознание, эмпатия, социализация, поощрение, культура общения.

TITLE: PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF TEACHING 3–4-YEAR- OLD CHILDREN TO FOLLOW SOCIAL NORMS AND RULES

Abstract. This scientific study analyzes the psychological characteristics of teaching 3–4-year-old children to follow social norms and rules. The research examines the mechanisms of social norm acquisition in preschool children based on their social behavior, emotional development, play activities, and interactions with adults. Observation results show that at this age, children follow social rules not through logical reasoning but through emotional

experience. Therefore, play activities, adults' personal example, a positive emotional environment, encouragement, and continuous communication play an important role in teaching social norms. The study highlights the psychological characteristics of 3–4-year-old children and the importance of cooperation between educators and parents in forming their moral awareness. The findings are enriched with practical recommendations for effectively organizing the process of social and moral education in preschool educational institutions.

Keywords: preschool child, social norm, rules, moral education, psychological characteristics, emotional experience, play activity, educator, social awareness, empathy, socialization, encouragement, communication culture.

Kirish. Inson shaxsining jamiyatda to'laqonli yashashi va faoliyat yuritishi, eng avvalo, uning ijtimoiy me'yor va qoidalarga amal qila bilish darajasi bilan belgilanadi. Bu me'yor va qoidalar jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatini tartibga soluvchi, umumiy qabul qilingan axloqiy, madaniy va xulqiy talablardir. Shaxsning bu me'yorlarni egallashi esa erta bolalik davridan boshlanadi. Ayniqsa 3–4 yosh oralig'i bolaning shaxsiy "men"i shakllanadigan, ijtimoiy ong va hissiy idrok faol rivojlanadigan davr hisoblanadi. Shu sababli bu bosqichda bolani ijtimoiy qoidalarga rioya qilishga o'rgatish, uning keyingi psixologik, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

3–4 yoshdagi bola o'zini alohida shaxs sifatida anglay boshlaydi, lekin u hali to'liq mustaqil emas. U kattalarga tayanadi, ularning xatti-harakatlarini kuzatadi va taqlid qiladi.

Shu bois bola uchun ijtimoiy me'yorlar, odob va qoidalar dastlab kattalarning xulqida ko'rinadigan, tashqi kuzatuv orqali idrok etiladigan holatdir. Bola kattalarning "buni qil", "bunday qilish mumkin emas" degan yo'riq va talablarini amalda bajarishga urinadi. Ammo bu amal qilish hali ongli emas, balki kattalarga yoqish, maqtov eshitish yoki jazodan qochish kabi emotsional motivlar asosida kechadi.

Ijtimoiy me'yor va qoidalarga amal qilishni o'rgatish — bu bolaga faqat "yaxshi" yoki "yomon" xatti-harakatlarni aytish emas, balki unga ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishni his etish, tushunish va his qilish imkoniyatini berish demakdir. 3–4 yoshda bolada empatiya, hamdardlik, rahm-shafqat kabi ijtimoiy hissiyotlar endigina shakllanadi. Shu bois bola boshqalar bilan o'yin o'ynar ekan, ularning his-tuyg'ularini tushunishga harakat qiladi.

Masalan, o'yinchoqni ulashish yoki navbat kutish jarayonida bola ijtimoiy me'yorni amalda his qiladi.

Psixologik tadqiqotlar (L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, M.G. Davletshin va boshqalar) ko'rsatishicha, maktabgacha yoshdagi bola ijtimoiy xulqning asosiy elementlarini o'yin faoliyati orqali egallaydi. O'yin — bu bola uchun hayotning o'zidir. O'yin jarayonida u o'zining ijtimoiy tajribasini kengaytiradi, kattalar hayotidagi rollarni sinab ko'radi va bu orqali ijtimoiy qoidalarga moslashishni o'rganadi. Masalan, "do'konchi va xaridor" o'yini davomida bola muloqot madaniyatini, navbat kutish, muloyim so'zlash, minnatdorchilik bildirish kabi me'yorlarni tabiiy tarzda o'zlashtiradi.

3–4 yoshli bolalarda ijtimoiy qoidalarni o'rganish hissiy tajribalar bilan chambarchas bog'liq. Bu yoshda bolalar uchun so'zdan ko'ra hissiy aloqa, ohang, yuz ifodasi, ovozda muloyimlik ko'proq ta'sir qiladi. Shu sababli tarbiyachining ovoz ohangi, yuz ifodasi va tanlangan so'zlari bola uchun muhim ahamiyatga ega. Bolalar emotsional jihatdan sezgir bo'lganliklari sababli, ularga qattiq buyruq yoki jazodan ko'ra, mehr bilan tushuntirish samaraliroq natija beradi.

Bola ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish jarayonida bir nechta bosqichlardan o'tadi.

Dastlab u kattalarning talablarini so'zsiz bajaradi. Keyin esa bu talablarning ma'nosini anglashni boshlaydi. Masalan, tarbiyachi "do'stingni urish yomon" desa, dastlab bola bu gapni faqat "taqiqlash" sifatida qabul qiladi, keyinchalik esa "urish" boshqalarga og'riq yetkazishini, bu esa "yomon" ekanligini tushunadi. Shu tarzda bola "nima uchun" degan savolga javob topish orqali ijtimoiy qoidalarining mohiyatini anglay boshlaydi.

Kattalar bolaga nafaqat qoidani aytishlari, balki uni hayotiy vaziyatlar orqali ko'rsatishlari zarur. Misol uchun, bolalar bir-biri bilan o'yinchoqni bo'lishmayotganida tarbiyachi "kelinglar, o'yinchoqlarni hammamiz birgalikda ishlatsak, hammamiz o'ynay olamiz" deb vaziyatni tushuntirsa, bola bu qoidaning mazmunini his qiladi. Kattalarning shaxsiy namunasi ham katta ahamiyatga ega. Bola kattalarning o'zaro mehribon, madaniyatli munosabatini ko'rsa, tabiiy ravishda o'sha xulqni qabul qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy me'yorlarni o'rgatishda rag'batlantirish usuli muhim rol o'ynaydi. 3-4 yoshda bola uchun maqto'v, tabassum, e'tibor kabi ijobiy ta'sirlar juda kuchli motivatsiya manbaidir. Tarbiyachining "Sen bugun do'stlaring bilan juda yaxshi o'ynading, rahmat!" degan so'zi bola uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bu

holatda bola o'zining to'g'ri xatti-harakatini his qiladi va uni keyingi safar ham takrorlashga intiladi.

Tarbiyachi yoki ota-onaning keskin tanbehi esa aks ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bolada qo'rquv hissi paydo bo'lib, u qoidalariga faqat jazodan qochish uchun amal qiladi. Bu esa ijtimoiy ongni emas, balki tashqi itoatni shakllantiradi. Shu sababli ijtimoiy me'yorlarni o'rgatish jarayonida muvozanat, sabr-toqat va izchillik muhimdir. 3-4 yoshdagi bolalarda ijtimoiy qoidalariga amal qilishni shakllantirishda muloqot madaniyatining o'rni ham beqiyosdir. Bola nutq orqali fikrini ifodalashni, boshqalarni tinglashni va o'z fikrini tushunarli aytishni o'rganadi.

Tarbiyachining bolalar bilan "yumshoq muloqot"da bo'lishi, ularning so'zlarini qadrlashi bolada ishonch va ochiqlikni rivojlantiradi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy muloqotda faol bo'lishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim konsepsiyasida ham maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Unda bola o'zini va boshqalarni tushunish, his-tuyg'ularni boshqarish, ijtimoiy me'yorlarga rioya etish, mas'uliyatni his qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi zarurligi qayd etilgan. Bu esa ijtimoiy me'yor va qoidalariga amal qilishni o'rgatish jarayonining davlat miqyosida ham muhim deb e'tirof etilganini ko'rsatadi.

Bola ijtimoiy me'yorlarni egallash jarayonida o'z-o'zini baholashni ham shakllantirib boradi. Masalan, bola biror ishni to'g'ri bajarganda quvonadi, noto'g'ri qilganida esa uyat yoki afsus hissini sezadi. Bu hislar bola shaxsiy mas'uliyatining ilk ko'rinishidir. Shu tarzda bola "men to'g'ri qildim" yoki "men xato qildim" degan ichki tahlilni o'rganadi. Bu esa kelgusida axloqiy ong va o'zini nazorat qilish mexanizmining poydevorini tashkil etadi.

3-4 yoshdagi bolalarda ijtimoiy me'yor va qoidalariga amal qilishni o'rgatish psixologik jihatdan izchil, ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega: kattalarning shaxsiy namunasi, o'yin faoliyatining mazmuni, muloqot madaniyati, rag'batlantirish tizimi va muhitdagi hissiy barqarorlik. Shu omillar uyg'un bo'lgandagina bola ijtimoiy qoidalariga tabiiy ravishda amal qila boshlaydi. 3-4 yoshdagi bolalarda ijtimoiy me'yor va qoidalariga amal qilishni o'rgatish jarayoni inson shaxsining kelajakdagi ijtimoiylashuviga bevosita ta'sir etuvchi psixologik poydevor hisoblanadi.

Shu yoshda bolaning ongida axloqiy tasavvurlar, ijobiy va salbiy xatti-harakatlarni farqlash, hamda o'z xulqini boshqarishning dastlabki shakllari paydo bo'ladi. Bu davrda bola atrofidagi insonlarning, ayniqsa, tarbiyachi va ota-onasining xatti-harakatlarini kuzatish orqali me'yorlarni o'rganadi. Shuning uchun tarbiyachining shaxsiy namunasi, nutqi, ohangdorligi, hissiy muvozanati va muomala madaniyati ijtimoiy qoidalarining singishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Psixologik nuqtai nazardan, 3–4 yosh oralig'i bolaning "ijtimoiy men"i shakllana boshlaydigan davrdir. U o'zini mustaqil mavjudot sifatida sezadi, lekin shu bilan birga boshqalarga qaramligini ham anglay boshlaydi. Shu sababli, ijtimoiy me'yorlarni o'rgatish jarayonida bolada "men" va "boshqalar" o'rtasidagi muvozanatni to'g'ri yo'naltirish zarur.

Masalan, "Men o'yinchoqni xohlayman" degan tabiiy istakni "Ammo do'stim ham o'ynashni istaydi" degan fikr bilan uyg'unlashtirish ko'nikmasi shakllanadi. Bu — axloqiy tafakkurning eng dastlabki shakli bo'lib, bolaning keyingi ijtimoiy rivojlanishida asosiy psixologik zamin yaratadi.

Kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishda bola asosan hissiy-intuitiv yo'l bilan o'rganadi. Ular uchun qoidaning mazmuni mantiqiy tahlil emas, balki his-tuyg'u orqali anglanadi. Masalan, bola "do'stiga yordam berganda" tarbiyachining tabassumi, maqtovi yoki quvonchi orqali ijobiy hisni boshdan kechiradi. Shu ijobiy hisning o'zi qoidaga amal qilishga undovchi ichki motivatsiya bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, bu yoshda axloqiy me'yorlarning o'zlashtirilishi — emotsional tajriba asosida mustahkamlanadigan jarayondir.

Psixologlar (L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, A.V. Zaporozets, J. Piaget) ta'kidlaganidek, ijtimoiy xulqning shakllanishida o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. 3–4 yoshda o'yin orqali bola nafaqat tasavvurini, balki ijtimoiy munosabatlarni ham o'zlashtiradi. Masalan, "doktor va bemor", "sotuvchi va xaridor", "tarbiyachi va bola" kabi rolli o'yinlarda u ijtimoiy rollarni bajaradi, boshqalar bilan muomala qiladi va bu orqali me'yoriy xatti-harakatni tajriba asosida o'rganadi. O'yin orqali bolaning xatti-harakati tashqi talab emas, ichki ehtiyojga aylanadi. Shu sababli ijtimoiy qoidalarini o'rgatishda o'yin metodlari eng tabiiy, samarali vosita hisoblanadi.

Tarbiyachining vazifasi bu jarayonda bolaning ijtimoiy tajribasini boyitish, uni his qilish, tahlil qilish va mustahkamlash imkonini berishdan iborat. Har bir bolaning shaxsiy individualligini hisobga olgan holda, me'yorlarni o'rgatishda yumshoq, emotsional, ishonchli yondashuv talab etiladi. Psixologik jihatdan bolani qo'rqitish, tanbeh berish yoki uyal tirish orqali ijtimoiy xulqni shakllantirish mumkin emas — bu faqat tashqi itoatni keltirib chiqaradi, ichki ehtiyojni emas. Shuning uchun har qanday qoida ijobiy his bilan bog'lanib o'rgatilishi kerak.

Ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishda oilaning roli nihoyatda muhim. Ota-ona va tarbiyachi o'rtasidagi tarbiyaviy yondashuvdagi uzviylik bolada barqaror xulqiy modelni shakllantiradi.

Masalan, bog'chada "navbat kutish" o'rgatilsa, lekin uyda bola doimo birinchi bo'lib narsaga ega bo'lsa, u me'yorni ichki qoidaga aylantira olmaydi. Shu bois oilaviy tarbiya va maktabgacha ta'lim o'rtasida ijtimoiy-hamkorlik tamoyilini yo'lga qo'yish zarur. Bu bola ruhiyatida uyg'unlikni ta'minlaydi, ichki ziddiyatni kamaytiradi.

Bolaning ijtimoiy me'yorlarga amal qilishida nutq rivoji ham muhim psixologik omil hisoblanadi. Chunki ijtimoiy qoidalar odatda so'z orqali ifodalanadi — "iltimos", "rahmat", "kechirasiz", "bo'ldimi?", "navbat bilan" kabi iboralar bola ongida ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlaydi.

Shu sababli 3–4 yoshda nutqni faollashtirish bilan birga, bu iboralarni emotsional va ijobiy muhitda qo'llash kerak. Masalan, tarbiyachi har safar bolaga "iltimos" deganda tabassum qilsa, bola bu so'zni ijobiy his bilan bog'laydi. Shunday yo'l bilan u qoidani nafaqat eslab qoladi, balki his etadi, ya'ni uni "sezadi".

Ijtimoiy me'yorlarni shakllantirishda jamoaviy faoliyat — o'yin, ashula, raqs, sahnalashtirish, umumiy tozalash ishlari — katta rol o'ynaydi. Bunday faoliyatlar orqali bolalar o'zaro muomala qilishni, yordam berishni, kutishni, bo'lishishni o'rganadilar. Bu jarayonda bolalar bir-birini kuzatadi, taqlid qiladi, bir-biridan o'rganadi. Shuning uchun tarbiyachi jamoaviy ishlarni tashkil etishda har bir bolaga ijtimoiy rol berishi zarur. Bu, o'z navbatida, o'zini jamiyat a'zosi sifatida his qilishga yordam beradi.

Psixologik tahlillar shuni isbotlaydiki, bu yoshdagi bola uchun ijtimoiy me'yor — bu tashqi nazorat emas, balki hissiy-motivatsion tajriba asosida o'rganiladigan hodisadir. Agar bola biror qoidaga amal qilish orqali quvonch, maqto'v, iliqlik his qilsa — bu xulq unda tabiiy odatga aylanadi. Aks holda, qoida faqat tashqi majburlash shaklida qoladi. Shu sababli ijtimoiy me'yorlarni o'rgatish jarayonida pedagogik jarayonning hissiy tomoni, ya'ni mehr, quvonch, o'zaro hurmat alohida ahamiyatga ega.

Xulosa xulosa qilib aytganda, 3–4 yoshdagi bolalarda ijtimoiy me'yor va qoidalarga amal qilishni o'rgatish quyidagi psixologik tamoyillar asosida samarali amalga oshadi:

Namuna tamoyili – bola kattalarning xulq-atvorini kuzatib, taqlid qilish orqali o'rganadi.

Shu sababli tarbiyachi o'zi me'yorlarga amal qiluvchi shaxsiy namunani ko'rsatishi lozim. O'yin orqali o'rganish – o'yin faoliyati bolaning ijtimoiy rollarni o'zlashtirishida eng tabiiy vositadir. Emotsional mustahkamlash – ijobiy his-tuyg'ular bilan bog'langan xulq doimiy odatga aylanadi. Individuallikka hurmat – har bir bola turlicha rivojlanadi, shuning uchun yondashuv shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ijtimoiy muhitning uyg'unligi – bog'cha va oiladagi tarbiyaviy ta'sir bir-birini to'ldirishi lozim.

Rag'bat va e'tirof – ijobiy baho, maqto'v, kichik mukofotlar bola motivatsiyasini kuchaytiradi. Doimiylik – ijtimoiy me'yorlarni o'rgatish qisqa muddatli emas, balki uzluksiz jarayon bo'lishi zarur.

Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy me'yor va qoidalarga amal qilishni o'rgatish — bu shunchaki intizom o'rnatish emas, balki bolada ijtimoiy ong, empatiya, boshqalarga hurmat va mas'uliyat tuyg'ularini uyg'otish demakdir. Bu jarayon psixologik jihatdan insonning butun hayot davomida ijtimoiy munosabatlarga kirishish salohiyatini belgilab beradi.

Demak, maktabgacha ta'lim davrida — ayniqsa, 3–4 yosh oralig'ida — ijtimoiy me'yorlarni o'rgatish, bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim psixologik bosqichlardan biridir. Tarbiyachi va ota-onaning samimiy, emotsional, ijobiy hamkorligi orqali bola o'zini ijtimoiy tizimning faol, mas'ul, hurmatli a'zosi sifatida his qila boshlaydi.

Bu esa kelajakda uning shaxsiy barkamolligi, ijtimoiy faolligi va axloqiy yetukligining poydevorini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.T.Nishanova, G.Kalimova, A.G'.Turg'unboyeva, M.X.Asranboyeva – Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi – Toshkent:2017
2. S.X.Jalilova, S.M.Aripova – Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi – Toshkent:"Faylasuflar" nashriyoti, 2017

3. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova – Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari – Toshkent:2015
4. Tuyevich K. B., Shukurovna K. M. Communication and development of pedagogical culture of the future teacher //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 35 (119).
5. M.M.Yo'ldasheva - Yoshlar tarbiyasida ma'naviyatning o'rni - Modern Science and Research 2023 Volume 3, Issue 3 ISSN:2181-3906 03.16.2024 399-403 betlar